

2024/2025 o'quv yili 60720900-Yengil sanoat buyumlari  
konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi (trikotaj) ta'lim yo'nalishi 4-  
kurs bitiruvchilari uchun Yakuniy Davlat Attestatsiya fanlaridan savollar  
ro'yxati

### **Xalqa hosil qilish jarayonlari fanidan**

1. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanilmasligi qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?
2. Mahsulot tannarxining oshishiga olib kelayotgan omillarni qanday tahlil qilish mumkin?
3. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini pasaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rish zarur?
4. Eksportni rag'batlantirish va yangi imtiyozlar taqdim etish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilishi lozim?
5. Trikotaj usulida ishlab chiqarishning afzalliklari haqida nima deya olasiz?
6. Trikotaj mashinalarining yuqori ish unumdorligi qanday iqtisodiy samaralar keltiradi?
7. Trikotaj mashinalarining texnologik imkoniyatlari qanday kengaytirilishi mumkin?
8. Trikotaj usulida kiyimlar ishlab chiqarishning to'quv usuliga nisbatan qanday afzalliklari bor?
9. Trikotaj sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlar turlarini sanab bering.
10. Trikotaj mashinalari va texnologiyalarini takomillashtirish yo'nalishidagi istiqbollari haqida nima deya olasiz?
11. Trikotaj to'qimasining tuzilishi haqida umumiy ma'lumot berib bering
12. Trikotaj va to'quv to'qimalarining asosiy farqlari nimalardan iborat?
13. Trikotajda gorizontalar halqalar qatori qanday tashkil topadi?
14. Vertikal halqalar ustunchalari qanday joylashadi va qanday vazifalarni bajaradi?
15. Ko'ndalangiga to'qilgan trikotajning xususiyatlari nimalardan iborat?
16. Bo'yalmasiga to'qilgan trikotajning tuzilishi qanday bo'ladi?
17. Bir qavatli trikotajni ishlab chiqarishda qanday mashinalar ishlatiladi va uning tuzilishi qanday?
18. Ikki qavatli trikotajning turlari va uning qanday texnologiyalar bilan to'qilishini tushuntirib bering.
19. Trikotaj to'qimasining halqalari qanday asosiy qismlardan tashkil topgan?
20. Trikotajning protyajkasi nima va u qanday vazifani bajaradi?
21. Trikotaj mashinasining turlari va ularning ishlash prinsiplarini ta'riflab bering

22. Lastik to'qimasining tuzilishi qanday va qanday xususiyatlari mavjud?
23. Lastik 1+1 va Lastik 2+2 to'qimalarining farqlari haqida tushuntirib bering.
24. Elastiklik qanday o'zgarishlarga olib keladi va uni oshirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilishi kerak?
25. Buraluvchanlik va so'tiluvchanlik qanday xususiyatlarga ega va ular qanday ta'sir ko'rsatadi?
26. Ip qalinligini aniqlashda qanday koeffitsientlar ishlatiladi va bu qalinlik hom ashyo turiga qanday bog'liq?
27. Halqa qadamini hisoblash usulini tushuntirib bering va uning qanday o'zgarishlarga ta'sir qilishi mumkin?
28. Gorizontal va vertikal bo'yicha zichlikni qanday hisoblash mumkin va bu zichliklarning o'zaro bog'liqligi qanday?
29. Halqa ipining uzunligini qanday aniqlash mumkin va bu ko'rsatkichlar to'qima sifatiga qanday ta'sir qiladi?
30. Trikotaj to'qimasining yuza zichligini qanday hisoblash mumkin va bu ko'rsatkich nima uchun muhim?
31. Lastik 2+2 to'qimasini loyihalashda qanday texnologik ko'rsatkichlar hisobga olinadi?
32. Lastik 2+2 to'qimasining texnologik ko'rsatkichlari bo'yicha misolni qanday hisoblash mumkin?
33. Halqa hosil qilish jarayoni qanday amallarni o'z ichiga oladi? Ularning bajarilish tartibi qanday?
34. To'quv usulida halqa hosil qilish ning trikotaj usulidan farqi nima?
35. Tilchali ignalarda halqa hosil qilish jarayoni qanday amallarni o'z ichiga oladi? Har bir amalni qisqacha tushuntirib bering.
36. Halqa hosil qilishni tugallash operatsiyasi qanday amalga oshiriladi?
37. Ipni ignaga qo'yish operatsiyasi qanday bajariladi va u qanday ahamiyatga ega?
38. Yangi ipning ilgak ostiga kiritilishi qanday amalga oshiriladi?
39. Ilgakni siqish operatsiyasi nima va u qanday ishlaydi?
40. Halqalarning birlashishi qanday sodir bo'ladi va bu jarayonning maqsadi nima?
41. Halqani tashlash jarayoni qanday ishlaydi? Ushbu operatsiya qanday maqsadga xizmat qiladi?
42. Halqani shakllantirish operatsiyasi qanday amalga oshiriladi va nima uchun bu jarayon zarur?
43. Tilchali ignalarning halqa hosil qilish jarayonidagi roli va ularning ishlash prinsipi qanday?
44. Halqa hosil qilish a'zolari nima deb ataladi va ularning ishchi a'zolari qaysilar?

45. Platina ning vazifasi nima va u qanday ishlaydi? Platina qaysi qismlaridan iborat?
46. BAIYUAN mashinasining kinematik sxemasi qanday tuzilgan va u qanday harakatlarni amalga oshiradi?
47. To'quv va ip berish mexanizmi ning qanday ishlashini tushuntiring. U qanday qismlar yordamida harakatga keltiriladi?
48. Platinalar va ignalar orasidagi o'zaro aloqani tushuntiring. Platinalar qanday qilib halqa hosil qilish jarayonini amalga oshiradi?
49. Mashinaning ishchi a'zolari orasida tilchali ignalar ning ahamiyati nimada va ular qanday ishlaydi?
50. Ip yurgizgichlar ning roli va ishlash tizimi haqida qisqacha ma'lumot bering.
51. Trikotaj mahsulotlarining afzalliklari nimalardan iborat? Ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tushuntiring.
52. Aylana lastik mashinasining ishlash prinsipi qanday? Mashinaning asosiy qismlari va ular qanday vazifalarni bajaradi?
53. Aylana lastik mashinasining kinematik sxemasi haqida tushuntirish bering. Mashinaning harakat tizimi qanday tashkil etilgan?
54. Aylana lastik mashinasining dvigateli qanday ishlaydi? Xarakatni qanday uzatadi?
55. Almashinuvchi tishli g'ildiraklar ning roli nima? Ularning ishlash prinsipi qanday?
56. Ignadon silindri va uning harakati qanday tartibda amalga oshiriladi? Uning qo'lda harakatga keltirilishi mumkinmi?
57. Tortish va o'rash mexanizmi qanday ishlaydi va uning harakat tizimi qanday tashkil etilgan?
58. Aylana lastik mashinasida ishlash tizimini qo'lda harakatga keltirish imkoniyati qanday ta'minlanadi?
59. Aylana lastik mashinasining yuqori qismlarida joylashgan mexanizmlar qanday vazifalarni bajaradi? Ularning roli nima?
60. Tasmali uzatma tizimi qanday ishlaydi va uning mashinaning ishiga ta'siri qanday?
61. Mashinaning avtomat moylovchi qismi qanday vazifani bajaradi?
62. Aylana lastik mashinasining yuqori qismidagi naqsh xosil qilish mexanizmi qanday ishlaydi?
63. Mashinaning ignalon silindri va diskini aylantirish tizimi qanday ishlaydi? U qanday mexanizmlar yordamida harakatga keltiriladi?
64. Mashina tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ularning xususiyatlari qanday? Trikotaj mahsulotlari uchun qanday texnologiyalar qo'llaniladi?
65. LXA 252 rusumli universal yassi ignadonli avtomatning asosiy vazifalari qanday? U qanday mahsulotlarni ishlab chiqaradi?

66. Yassi ignadonli trikotaj-to'quv mashinasining afzalliklari nimalardan iborat? U qanday texnologik va iqtisodiy o'zgarishlarga yordam beradi?
67. Yassi ignadonli mashinalarda naqsh hosil qilish imkoniyatlari qanday kengaytirilgan va qanday yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishi mumkin?
68. Yassi ignadonli trikotaj-to'quv mashinasining ish jarayoni qanday amalga oshiriladi? Xalqa hosil qilish jarayoni qanday ketma-ketlikda bajariladi?
69. Ignadonli mashinalarda ip qo'yish jarayoni qanday tashkil etiladi? Ip qanday tarzda igna ilmog'iga qo'yiladi?
70. Platinalarning roli qanday? Ular qanday operatsiyalarni bajaradi va yangi ipni qanday qo'yadi?
71. Ignalar va tutashtirgichlar qanday harakat qiladi va ularning o'zaro ta'siri qanday?
72. Xalqa hosil qilish jarayonida eski xalqalar bilan qanday operatsiyalar amalga oshiriladi? Ular qanday tartibda ko'tariladi va tashlanadi?
73. Xalqa hosil qilish jarayonida igna harakatini boshqarish qanday amalga oshiriladi? Ignalar qanday pozitsiyalarni egallaydi va yangi xalqalarni qanday shakllantiradi?
74. Xalqa hosil qilish jarayonida presslash operatsiyasi qanday amalga oshiriladi va uning ahamiyati nima?
75. Mashinaning yuqori tezlikda ishlash rejimi qanday ishlaydi? Boshqaruv tizimi qanday sozlanadi?
76. Tez to'xtatish rejimi qanday ishlaydi va uning yordamida mashina qanday ishlashni to'xtatadi?
77. Yassi ignadonli trikotaj mashinasining strukturalari haqida tushuntirish bering. Ularning tuzilishi va ish prinsipi qanday?
78. Mashina komponentlarining o'zaro aloqasi qanday tashkil etilgan? Ular qanday bir-birini qo'llab-quvvatlaydi?
79. Xalqa hosil qilish jarayonida ignalar o'rtasidagi koordinatsiya qanday ta'minlanadi va har bir igna qanday vazifalarni bajaradi?
80. Trikotaj mashinalarining qanday xususiyatlari mavjud?
81. Glad to'qimasi qanday xususiyatga ega?
82. Gorizontaal bo'yicha zichlik qanday aniqlanadi?
83. Trikotaj to'qimalarining fizik-mexanik xususiyatlariga qaysi ko'rsatkichlar kiradi?
84. Ikki aylana ignadonli trikotaj to'quv mashinasini eni 96 sm yopiq enli material olish uchun nechinchil dyumli mashinadan foydalanish kerak?
85. Bir qavatli trikotajda qanday mashina ishlatiladi?
86. Trikotaj to'qimasi qanday turlarga bo'linadi?
87. Trikotaj - to'quv mashinasining klassi deb nimaga aytiladi?

88. Halqa hosil qilishda “yangi halqani shakllantirish” operatsiyasi qanday amalga oshiriladi?
89. Trikotaj usulida halqa hosil qilishning birinchi operatsiyasi nima?
90. Yangi ipning ignaga qanday usulda qo‘yilishi kerak?
91. Qaysi trikotaj buyumlari ishlab chiqarish usulida ishlab chiqarish hajmi yuqori bo‘ladi?
92. Halqa hosil qilishning barcha jarayoni nechta operatsiyaga bo‘linadi?
93. Bir ignadonli BAIYUAN mashinasi qanday to‘qimalarni to‘qiydi?
94. Yassi ignadonli trikotaj to‘quv mashinada to‘qilgan buyumlarning detallari qaysi universal mashinada birlashtiriladi?
95. LXA 252 yassi ignadonli trikotaj to‘quv mashinasi mahsulot ishlab chiqarishga ko‘ra qaysi usulga kiradi?
96. Mashinadagi igna va platinalar orasidagi oraliqdan to‘quv tugunchasi bemalol o‘tishi uchun bu oraliq qanday bo‘lishi kerak?
97. Mashinadagi igna va platinalar orasidagi oraliqdan to‘quv tugunchasi bemalol o‘tishi uchun bu oraliq qanday bo‘lishi kerak?
98. To‘quv mashinalarda xalqa hosil etuvchi a‘zolari sifatidan nimalardan foydalaniladi?
99. Yassi ignadonli trikotaj mashinasi necha asosiy qismga bo‘linadi?
100. Qaysi usulda ratsional ishlab chiqarishga erishiladi?

### **Naqshli va donali trikotaj fanidan**

1. Trikotaj tarmog‘ining rivojlanishining asosiy sabablari nimalardan iborat?
2. Yopqichli to‘qima ishlab chiqarish asosiy qoidalari qanday?
3. Naqshli trikotaj to‘qimalari tasnifi. Naqshli to‘qima elementlari?
4. Bir ignadonli tanda to‘quv mashinalari?
5. Respublikamizda qurilayotgan to‘qimachilik korxonalarini qanday mahsulotlar ishlab chiqaradi?
6. Bir ignadonli tanda to‘quv mashinalarida yopqichli trikotaj to‘qimalarini olish qoidasi?
7. Yopqichli trikotaj to‘qimalari, ularning tuzilishi, hosil qilish usullari va xususiyati?
8. Naqshli trikotaj haqida tushuncha?
9. Trikotajning ko‘ndalang va bo‘ylama to‘qilishi orasidagi farq nimada?
10. Grebenkalarining ignalar oldida bir yo‘nalishda surilishi qanday?
11. O‘zbekiston Respublikasida trikotaj sanoatini tez sur‘atlar bilan rivojlanishining asosiy omillari?
12. Sidirg‘a yopqichli trikotaj nimalarga tavsiya etiladi?
13. Futerli split-trikotajning pressli split-trikotajdan farqi nima?
14. Grebenkalarining ignalar oldida qarama-qarshi yo‘nalishda surilishi jarayoni?
15. Naqshli trikotaj to‘qimalar haqidagi asosiy tushunchalar va ta’riflar?

16. Yopqichli to‘qima ishlab chiqarish asosiy qoidalari?
17. Pressli split-trikotaj to‘qimalari haqida ma’lumot bering?
18. Naqshli va donali trikotaj fanining mazmuni, predmeti va metodi?
19. Trikotaj to‘g‘risida tushunchalar. Naqshli va donali trikotaj to‘qimalari to‘g‘risida tushunchalar?
20. Yopqichli trikotaj to‘qimalari, ularning tuzilishi, hosil qilish usullari va xususiyati?
21. Bir-biriga kirishtirib qo‘shib to‘qiladigan split-trikotaj?
22. Tukli trikotaj to‘qimalari haqida ma’lumot bering?
23. Ajur trikotaj to‘qimasi haqida ma’lumot bering?
24. Filey trikotaj to‘qimasini olish usuli qanday?
25. Igna oralab qo‘shib to‘qiladigan split-trikotaj?
26. Asos va tukli ip uchun turli egish chuqurligini hosil qilish usullari qanday?
27. Ilgakli ignali mashinalarda ajur teshikchalarini hosil qilish texnologiyasi qanday?
28. Kiper trikotaj to‘qimasi trikotaj to‘qimasini olish texnologiyasi?
29. Qoplama qo‘shib to‘qiladigan split-trikotaj?
30. Futer trikotaj to‘qimalari haqida ma’lumot bering?
31. Maxsus kengaytirgichli ignalarni qo‘llab halqa ko‘chirish usuli?
32. Jakkard trikotaj to‘qimasini olish texnologiyasi?
33. Bo‘ylama qo‘shib to‘qilgan (split) trikotaj to‘qimalari haqida ma’lumot bering?
34. Futer ipini asos to‘qimasiga qo‘shib to‘qish jarayoni haqida ma’lumot bering?
35. Ananas trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi qanday?
36. Nomuntazam jakkard to‘qimalari olish texnologiyasi?
37. Yopqichli trikotaj to‘qimalariga izoh bering?
38. Arqoq trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi qanday?
39. Press trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi?
40. Press trikotaj to‘qimalarini olish texnologiyasi?
41. Naqshli va donali trikotaj fanining mazmuni, predmeti va metodi?
42. Naqshli trikotaj to‘qimalar haqidagi asosiy tushunchalar va ta’riflar?
43. Yopqichli to‘qima ishlab chiqarish asosiy qoidalari?
44. Naqshli trikotaj to‘qimalari tasnifi. Naqshli to‘qima elementlari?
45. Bir ignadonli tanda to‘quv mashinalari?
46. Yopqichli trikotaj to‘qimalari, ularning tuzilishi, hosil qilish usullari va xususiyati?
47. Naqshli trikotaj haqida tushuncha?
48. Ko‘ndalang to‘quv mashinalarida yopqichli trikotaj olish texnologik imkoniyatlari?

49. O'zbekiston Respublikasida trikotaj sanoatini tez sur'atlar bilan rivojlanishining asosiy omillari?
50. Sidirg'a yopqichli trikotaj nimalarga tavsiya etiladi?
51. Ajur to'qimasi haqida nima bilasiz?
52. Ajur teshikchalari qanday hosil bo'ladi?
53. Ajur teshikchalarini hosil qilishda halqalar qanday ko'chiriladi?
54. Dekkerlar nima va ular qanday ishlaydi?
55. Tilchali ignali mashinalarda ajur teshikchalarini hosil qilish texnologiyasini tushuntiring
56. Ananas trikotaj to'qimasi nima?
57. Ananas trikotaj to'qimasining ishlab chiqarish texnologiyasini tushuntiring
58. Xalqaning platina yo'ylarini ko'chirish hisobiga qanday to'qima hosil bo'ladi?
59. Bir qavatli ananas trikotaj to'qimasining tuzilishini tasvirlab bering.
60. Press trikotaj to'qimasi nima?
61. Nabroskalar va press xalqalari qanday hosil qilinadi?
62. Sidirg'a press to'qimalari qanday turlarga bo'linadi?
63. Filey trikotaj to'qimasi nima?
64. Filey trikotaj to'qimasini ishlab chiqarish uchun qanday grebenkalar kerak?
65. Filey trikotaj to'qimasini loyihalashda qanday ketma-ketlikka amal qilish kerak?
66. Kiper trikotaj to'qimasi qanday xususiyatlarga ega?
67. Kiper sepochna qanday tuzilishga ega?
68. Kiper sepochnalarining ikkita variantining qanday farqlari bor?
69. Kiper sepochnalarini qanday mahsulotlar ishlab chiqarishda qo'llash mumkin?
70. Jakkard trikotaj to'qimasi nima?
71. Jakkard to'qimalarining tasnifi qanday?
72. Muntazam jakkard to'qimalarining tuzilishi qanday?
73. To'liq ikki qavatli jakkard to'qimalarining xususiyatlari qanday?
74. To'liqmas ikki qavatli jakkard to'qimalarining xususiyatlari qanday?
75. Ikki rangli jakkard to'qimasining orqa tomoni qanday bo'ladi?
76. Uch rangli jakkard to'qimasining orqa tomoni qanday bo'ladi?
77. Nomuntazam jakkard to'qimasi qanday tuzilishga ega?
78. Jakkard xalqasining tuzilishi qanday?
79. Jakkard xalqasini olish uchun qanday qonunlar amal qiladi?
80. Jakkard trikotaj to'qimalarini hosil qilishda ignalar qanday ishlatiladi?
81. Jakkard to'qimalarini hosil qilishda qatnashayotgan iplar qanday tartibda ishlatiladi?
82. Noto'liq trikotaj to'qimalari qanday olinadi?

83. Noto'liq trikotaj to'qimalari qanday tuzilmalarga ega bo'lishi mumkin? Misollar keltiring.
84. "Qulf" tushunchasini izohlang. Qulf qanday vazifani bajaradi?
85. Noto'liq to'qimalarning tuzilishi bo'yicha qanday farqlar mavjud? Bir qavatli va ikki qavatli ko'ndalangiga to'qilgan noto'liq to'qimalarni taqqoslang.
86. Qayta qo'shib to'qilgan trikotaj to'qimalari qanday xususiyatlarga ega? Ularning asosiy maqsadi nima?
87. Qayta qo'shib to'qilgan to'qimalarda bog'lovchi iplar qanday ishlatiladi? Buning mashina unumdorligiga ta'siri qanday?
88. Qayta qo'shib to'qilgan to'qimalarda halqalar so'tilmaydiganligi qanday ta'minlanadi?
89. Qayta qo'shib to'qilgan to'qimalarning ishlash jarayonini qisqacha tushuntirib bering.
90. Notekis trikotaj to'qimalari qanday olinadi? Halqa o'lchamlarini o'zgartirish orqali qanday natijalarga erishish mumkin?
91. Bo'ylama va ko'ndalang notekis trikotaj to'qimalari qanday farqlanadi?
92. Ko'ndalang to'qiladigan notekis to'qimasi qanday texnologiyalar bilan olinadi?
93. Chap-rost trikotaj to'qimasi nima va qanday tuzilishga ega?
94. Chap-rost to'qimalarini olish jarayonida qanday o'zgarishlar yuz beradi?
95. Lastik 1+1 asosida chap-rost to'qima olish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
96. Chap-rost trikotaj to'qimasi ishlab chiqarilishida qanday maqsadlar ko'zlanadi?
97. Tukli to'qima nima va uning asosiy xususiyatlari qanday?
98. Tukli to'qimadagi asos va yopqich iplarining uzunliklaridagi o'zgarishlar qanday ta'sir ko'rsatadi?
99. Tukli to'qimalarda uzaytirilgan protyajka yoki platina yoylarining roli qanday?
100. Tukli to'qimadagi tukli ip va asos ipi orasidagi farqni tushuntiring.



### **Trikotaj mahsulotlarini tikish fanidan**

1. Trikotaj mahsulotlarini tikishda qo'llaniladigan asosiy mashina turlari haqida tushuncha bering.
2. Trikotaj mahsulotlarini tikishda ishlatiladigan mashina va uskunalar qanday tuzilishga ega?
3. Trikotaj mahsulotlarini tikish jarayonida ishlatiladigan kinematik parametrlarni aniqlash metodlarini tushuntiring.
4. Trikotaj buyumlarini tikish mashinalarining ishlash printsipti qanday?
5. Trikotaj mahsulotlarini tikishda bahya hosil qilish jarayonining bosqichlarini tushuntirib bering.
6. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan yangi texnologiyalarning afzalliklari nimalardan iborat?
7. Trikotaj mahsulotlarini tikish mashinasining igna mexanizmi va uning vazifasi haqida tushuncha bering.
8. Moki, igna mexanizmi, matoni surish mexanizmi, tishli reyka va bosuvchi mexanizmi qanday ishlaydi va ularning vazifalari nimalardan iborat?
9. Trikotaj mahsulotlarini tikishda ishlatiladigan dasturlashtirilgan elektron boshqaruv tizimlarining afzalliklari va roli haqida gapirib bering.
10. Trikotaj mahsulotlarini tikish mashinalarining sozlanishi va ularning texnologik parametrlarini qanday aniqlash mumkin?
11. Trikotaj mahsulotlarini tikishda ishlatiladigan ultratovush va lazer texnologiyalarining afzalliklarini tushuntirib bering.
12. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan yangi uskunalarining ta'siri qanday bo'lishi mumkin?
13. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish jarayonlari qanday rivojlanmoqda?
14. Yengil sanoat sohasida ta'lim olayotgan talabalar uchun trikotaj mahsulotlarini tikish bo'yicha qanday kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish muhimdir?
15. Trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan yuqori samarali texnologiyalarning ish faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
16. Ichki trikotaj mahsulotlarining asosiy talablarini va xususiyatlarini tushuntirib bering.
17. Ichki trikotaj mahsulotlarining assortimentiga qanday mahsulotlar kiradi? Misollar keltiring.
18. Sport ichki trikotaj mahsulotlarining xom-ashyosi qanday va ularning turlari haqida tushuntirish bering.
19. Bolalar ichki trikotaj mahsulotlari assortimentining farqlari nimalardan iborat?

20. Ustki trikotaj mahsulotlari qanday asosiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
21. Kattalar uchun ustki trikotaj mahsulotlariga qanday buyumlar kiradi? Misollar keltiring.
22. Bolalar ustki trikotaj mahsulotlari va kattalar mahsulotlari o'rtasidagi asosiy farqlarni tushuntirib bering.
23. Ayollar uchun ustki trikotaj ko'ylak va kostyumlarining materiallari va modellarini qanday tasvirlash mumkin?
24. Sviterlar va shimlar qanday usulda ishlab chiqariladi va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
25. Paypoq mahsulotlarining asosiy xususiyatlari qanday? Ularning ishlab chiqarish materiallari haqida tushuntiring.
26. Qo'lqop mahsulotlari tarmog'ini qanday turlarga ajratish mumkin? Ular qanday maqsadlarda ishlab chiqariladi?
27. Texnik trikotaj mahsulotlari qanday sanoat ehtiyojlariga mos keladi va ular qanday xususiyatlarga ega?
28. Trikotaj matolarining afzalliklari nimalardan iborat? Ularning kiyinishdagi qulayliklari haqida gapirib bering.
29. Trikotaj mahsulotlarining ishlab chiqarilishida tabiiy va sun'iy tolalarning o'rni va farqlari nimalarda?
30. Texnik trikotaj mahsulotlarining ishlab chiqarilish jarayonida qo'llaniladigan iplarga qanday talablar qo'yiladi?
31. Tikuv mashinalari qanday asosiy guruhlarga ajratiladi va har bir guruhning xususiyatlarini tushuntiring.
32. Moki va zanjir baxyalari orasidagi farq nima? Qaysi turdagi mashinalarda foydalaniladi?
33. Moki baxya qatorining afzalliklari va xususiyatlari haqida tushuntirish bering.
34. ZJ5780 petlya ochish mashinasining texnik xususiyatlarini va uning ishlash printsipini tushuntirib bering.
35. ZJ 9000 DA rusumli tikuv mashinasining qanday ishlash xususiyatlari bor? U qanday maqsadlar uchun mo'ljallangan?
36. ZJ 9000 DA tikuv mashinasining asosiy mexanizmlari va ularning vazifalari haqida tushuntirib bering.
37. ZOJE (ZJC2521-156M-BD-D3) firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan yo'rmab tikish mashinalarining asosiy xususiyatlari va afzalliklari nimalardan iborat?
38. ZOJE yo'rmab tikish mashinasi qanday trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi?
39. Yo'rmash mashinalarida baxyaning yirikligi va yo'rmash kengligi qanday sozlanadi va bu qanday natijalarga olib keladi?
40. Moki va zanjir baxyalari ishlatiladigan mashinalarda qo'llaniladigan iplarning xususiyatlari haqida tushuntiring.

41. Zanjir baxya mashinalarining ishlash prinsipi qanday? Ular qanday materiallar bilan ishlash uchun mo'ljallangan?
42. ZJ 9000 DA tikuv mashinasida ishlatiladigan ignalar va ularning funksiyalarini tushuntirib bering.
43. Petlya ochish mashinasining ishlash jarayonida halqa yo'rmashning qanday texnologik ahamiyati bor?
44. Tikuv mashinalarining texnologik ko'rsatkichlarini qanday baholash mumkin va ular ishlab chiqarish samaradorligini qanday ta'sir qiladi?
45. Trikotaj buyumlarini tikishda qo'llaniladigan tikuv mashinalari qanday asosiy guruhlarga bo'linadi? Har bir guruhning vazifasini tushuntiring.
46. Trikotaj buyumlarini tikishda ishlatiladigan yo'rmalovchi mashinalar qanday xususiyatlarga ega va ularning ishlash prinsipi qanday?
47. Moki bahyali mashinalarning ishlash prinsipi va ularning trikotaj materiallarida qo'llanilishi haqida tushuntirish bering.
48. Zanjir bahyali (tambur) mashinalarining qanday xususiyatlari bor va ular qanday trikotaj buyumlarini tikishda ishlatiladi?
49. Yassi bahyali mashinalar qanday turdagi buyumlarni tikishda ishlatiladi?
50. Mokili mashinalar va halqali mashinalar orasidagi farqlarni tushuntirib bering.
51. ZOJE 9000 DA mokili bahya mashinasining asosiy xususiyatlari va ishlash prinsipini tushuntirib bering.
52. ZOJE 2524 D tambur mashinasining ishlash prinsipi va uning qo'llanilishi haqida tushuntirib bering.
53. Halqa bahyali mashinalar qanday xususiyatlarga ega va ular qaysi jarayonlarda ishlatiladi?
54. Mokili mashinalar va halqali mashinalar o'rtasidagi afzalliklar va kamchiliklarni qanday baholaysiz?
55. Trikotaj buyumlarini tikishda yarim avtomat mashinalarning roli qanday va ular qanday maqsadlarda qo'llaniladi?
56. Mashinalarning konstruksiyasi va kinematikasiga qarab, tikuv mashinalari qanday turlarga bo'linadi?
57. Tikuv mashinalarining zavod klassifikatsiyasi va uning maqsadi haqida qisqacha tushuntiring.
58. Bir ipli halqa bahyali mashinalar nima uchun ishlatiladi va ularning asosiy vazifalari qanday?
59. ZOJE 2524 D tambur mashinasining texnik xususiyatlarini va uning ishlash prinsipini tushuntiring.
60. Yashirin halqa bahyali tikuv mashinasida egilgan ignaning roli nima va qanday xususiyatlarga ega?

61. Zanjir halqa mashinalaridan farq qilib, bir ignali ikki ipli halqa bahyali mashinalar qanday ishlash printsipiga ega?
62. Oddiy tikuv mashinalari bilan bir ignali halqa bahyali mashinalar o'rtasidagi farqlarni taqqoslab bering.
63. Beyka va plankalarni tikishda ishlatiladigan mashinalarning xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
64. Trikotaj matolarini ishlashda halqa bahya mashinalarining afzalliklari va kamchiliklarini ta'kidlab bering.
65. Birinchi marta tikilayotgan matoning chet qismini ikki ipli yo'rmalovchi mashinada tikish talabini qanday tushuntirish mumkin?
66. Ikki ignali uch ipli yassi chokli mashinalarning qurilishidagi asosiy farq nimadan iborat?
67. ZJ 9000 D yassi chokli tikuv mashinasining afzalliklari qanday?
68. ZJ 9000 D yassi chokli tikuv mashinasining texnik xususiyatlarini va uning qanday materiallarga ishlov berishda qo'llanilishini tushuntiring.
69. Uch ipli yassi chokli mashinaning ishlash prinsipi qanday? Ignalar qanday tartibda joylashtiriladi va bu nima uchun zarur?
70. ZJ 9000 D yassi chokli mashinasining ishlash jarayonida ignalar orasidagi masofaning o'zgartirilishi qanday ahamiyatga ega?
71. Yassi chokli mashinaning ishlash mexanizmi va uning moylash tizimi qanday ishlaydi?
72. Ignalarni taqish jarayonida qanday bosqichlar mavjud va iplarni qanday yo'naltirish kerak?
73. Reykali mexanizmning roli qanday va qanday qilib uning balandligini sozlash mumkin?
74. Yassi chokli tikuv mashinasining tezligi va uning ishlash samaradorligi qanday bog'liq?
75. Chalishtirgichlar va ip taranglik rostlagichlarning funksiyalarini tushuntiring.
76. Moylash tizimining ishlashini va uning mashinaning samarali ishlashi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini izohlang.
77. ZJ 9000 D yassi chokli mashinasining ishlatiladigan materiallar uchun cheklovlar qanday va bu qanday ta'sir qiladi?
78. Zoje ZJ 373 tugma qadash avtomati qanday materiallarga mo'ljallangan va qanday tugmalarni qadashda ishlatiladi?
79. Zoje ZJ 373 tugma qadash avtomatining asosiy mexanik tizimlari va ishlash prinsipi qanday?
80. Mashinaning bosh valining aylanish tezligi qanday va bu tugma qadash jarayoniga qanday ta'sir qiladi?
81. Zoje ZJ 373 tugma qadash mashinasida tugma qanday o'rnatiladi va tugma qadash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
82. Mashinaning tugma qadash jarayonidagi ip uzatish mexanizmi qanday ishlaydi va u qanday qilib tugma bilan materialni birlashtiradi?

83. Tugma qadash jarayonida ignaning harakati qanday amalga oshiriladi va igna qanday qilib tugmani qadiydi?
84. Mashinaning ip qirqish mexanizmi qanday ishlaydi va u qanday vazifani bajaradi?
85. Zoje ZJ 373 tugma qadash avtomatining texnik xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot bering (masalan, tugma teshiklari soni, tugma qadash davri va boshqalar)
86. Mashinaning tugma qadash jarayonida ishlov berilayotgan kiyim va tugma orasidagi masofa qanday sozlanadi va bu qanday amalga oshiriladi?
87. Mashinaning tugma qadash mexanizmida avtomatik moylash va planetar sharikli to'xtatish tizimlarining roli qanday?
88. Tugma qadash jarayonida ishlov berilayotgan materialning holati va uning mashina tomonidan qanday boshqarilishi haqida ma'lumot bering
89. Tugmalarni ta'minlash jarayonida ishlov berilayotgan kiyim va tugma orasidagi oraliqni qanday ta'minlash mexanizmi mavjud?
90. Tugma qadash avtomatining qisqacha tuzilishi va uning ishlash jarayoni haqida umumiy ma'lumot bering.
91. To'g'ri ignaning tuzilishi qanday va uning qismlari qanday nomlanadi?
92. Ignaning ko'zchasining vazifasi nima va uning kattaligi qanday belgilanadi?
93. Ignaning uch qismidagi o'yiqchalar qanday vazifani bajaradi?
94. Ignaning maxsus raqamlari qanday belgilanadi va ular nimani anglatadi?
95. Trikotaj buyumlarini tikishda nima uchun choklar trikotaj matosining xususiyatiga mos bo'lishi kerak?
96. Bahya va bahya qatori o'rtasidagi farq nima?
97. Choklarning turlari qanday bo'ladi va ularning vazifasi nima?
98. Biriktiruvchi chok turlari qanday bo'ladi va ularning vazifalari nimalardan iborat?
99. Bostirma chokning turlari qanday va ular qanday joylarda ishlatiladi?
100. Bezak choklari qanday ishlatiladi va ular qanday turlarga bo'linadi?